

Journal of Social Research in Uzbekistan**SOME THOUGHTS ON THE HISTORY OF THE BRONZE AGE (ON THE EXAMPLE OF THE MATERIAL CULTURE OF THE SURKHAN OASIS)*****Diyorbek Khaydarov****Master's student**Oriental University**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Central Asia, Surkhan Oasis, monument, civilization, Bronze Age, culture, material sources.

Received: 26.04.25**Accepted:** 28.04.25**Published:** 30.04.25

Abstract: The article discusses the features of the Bronze Age based on the material culture of the Surkhan Oasis. Using archaeological data from the Surkhan Oasis, it addresses issues concerning the periodization of the Bronze Age, the origins of cultures, and modern perspectives on Bronze Age civilizations. The article also highlights certain one-sided viewpoints regarding the history of the Bronze Age that appear in foreign scholarly studies.

BRONZA DAVRI TARIXIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (SURXON VOHASI MODDIY MADANIYATI MISOLIDA)***Diyorbek Xaydarov****Magistratura talabasi**Oriental universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Surxon vohasi, yodgorlik, sivilizatsiya, bronza davri, madaniyat, moddiy manbalar.

Annotatsiya: Maqolada bronza davrining o'ziga xos xususiyatlari Surxon vohasining moddiy madaniyati asosida tahlil qilingan. Surxon vohasiga tegishli arxeologiya ma'lumotlari asosida bronza davrini davrlashtirish masalasi, madaniyatlar genezesi, bronza davri sivilizatsiyalari borasidagi zamonaviy qarashlar ochib berilgan. Xorijiy ilmiy tadqiqotlardagi bronza davri tarixiga oid ayrim bir yoqlama qarashlar yoritilgan.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ПО ИСТОРИИ БРОНЗОВОГО ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ МАТЕРИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА)

Диёрбек Хайдаров

студент магистратуры

Oriental университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Средняя Азия, Сурханский оазис, памятник, цивилизация, эпоха бронзы, культура, материальные источники.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности бронзового века на основе материальной культуры Сурханского оазиса. На основе археологических данных, относящихся к Сурханскому оазису, раскрываются вопросы периодизации эпохи бронзы, генезиса культур, современные взгляды на цивилизации эпохи бронзы. Освещены некоторые односторонние точки зрения по истории эпохи бронзы, имеющие место в иностранных научных исследованиях.

KIRISH

O'zbekiston va umuman Markaziy Osiyo ibtidoiy jamoa tuzumi va qadimgi davr tarixini o'rganishda arxeologik ma'lumotlar birlamchi manbalarga aylangan. Qadimgi Baqtriyaning tarkibiga kirgan Surxon vohasining – bronza davri tarixini, yangi asoslarda o'rganish, mavjud ma'lumotlarni qiyoslash va yangicha talqin qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu yo'nalishdagi bronza davri tarixi bo'yicha tadqiqot ishlarni XX asr 90-yillariga qadar va o'rta asrning 90-yillari – XXI asr boshlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar guruhlariga ajratish mumkin.

XX asrning 60-70-yillaridan boshlab, Surxon vohasining qadimgi tarixi va madaniyatini o'rganilishiga katta hissa qo'shgan bir qator olimlar – A.A.Asqarov, L.I.Albaum, G.A.Pugachenkova, E.V.Rtveladze, X.Duke, T.V.Belyayeva, Z.A.Hakimov, Sh.R.Pidayev, A.S.Sagdullayev, T.Sh.Shirinov, B.N.Abdullayev, U.V.Rahmonov tadqiqotlarini qayd etib o'tish joiz. XX asr 90-yillari – XXI asr boshlarida esa Surxon vohasi bronza davri tarixi masalalarini yoritishda A.A.Asqarov, E.V.Rtveladze, A.S.Sagdullayev, T.Sh.Shirinov, Sh.B.Shaydullayev, N.A.Avanesova kabi tadqiqotchilarning ishlari muhim ahamiyatga ega. Mazkur olimlar tadqiqotlari tahlili asosida bronza davri tarixining o'ziga xos xususiyatlari xususida to'xtalib o'tish mumkin.

ASOSIY QISM

Surxon vohasi hududlaridan topib o'rganilgan bronza davri qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari ularning moddiy madaniyatiga xos xususiyatlarga ko'ra, ikki guruhga bo'linadi. Birinchisi-Sopolli madaniyati tipidagi yodgorliklar, ikkinchisi esa Kuchuk 1, Qizil 1 kabi yodgorliklardir. Ularning tarixiy va antropologik kelib chiqish ildizlari bir bo'lsada, ammo xronologik jihatdan turli davrlarga tegishlidir. Ularning etnomadaniy rivojlanish darajasi,

antropologik qiyofasi, davriy sanalari va moddiy madaniyatining o'ziga xos jihatlari keng ko'lamda o'rganilgan. Ayniqsa, Sopolli madaniyatining xronologik izchillik asosida taklif etilgan bosqichlarining davriy ketma-ketmaligi birlamchi manbalar asosida tuzilgan. Dastlab, A.Asqarov Sopolli madaniyatini uch xronologik bosqichga, ya'ni Sopolli, Jarqo'ton va Mo'lali bosqichlariga bo'linishini asosladi [1]. Ularning sanalarini (Sopolli: 1700-1500, Jarqo'ton: 1500-1350, Mo'lali:1350-1000) aniqladi. Undan so'ng, arxeolog B.Abdullayev Jarqo'ton qabristonining IVA maydonlarida qazishmalar olib borib, 731 ta qabr materiallari asosida Sopolli madaniyati davriy sanasiga Ko'zali bosqichi kiritilishini taklif qildi [2]. Uning yil sanasi mil. avv. 1350-1200 yillar bilan belgilandi. U.Raxmanov Jarqo'tonda kulolchilik bilan bog'liq muammolar ustida izlanishlar olib borib, yodgorlikning vertikal va gorizonta stratigrafiyasiga alohida e'tibor qaratadi, bu hududlarni o'zlashtirilishining tarixiy va xronologik ketma-ketligini o'rganib, Sopolli madaniyatining yakunlovchi bo'ston bosqichini taklif qiladi [3]. Mo'lali bosqichining yil sanasi mil. avv. 1200-1050 yillar bilan, Bo'ston bosqichi esa mil.avv. 1050-900 yillar bilan belgilanadi.

Sopolli madaniyati va uning bosqichlarga bo'linishi yuzasidan A.Asqarov va uning shogirdlari tomonidan taklif etilgan xronologik ketma-ketlik ilmiy jamoatchilik orasida isbotlanib, uzoq yillar ilmiy muomalada bo'lib keldi. Biroq, keyingi yillarda Jarqo'ton yodgorligi va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish xalqaro ahamiyat kasb etib, Germaniya olimlari e'tiborini o'ziga tortmoqda. Germaniyalik arxeolog D.Xuff O'zbekiston arxeologlari (Sh.Shaydullayev, T.Shirinov va boshqalar) bilan ijodiy hamkorlikda Jarqo'tonning arxeologik izlanishlarida qatnashib, ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritdi. D. Xuff Jarqo'tonda izlanishlar olib borar ekan, asosiy e'tiborni Jarqo'ton ibodatxonasi ostida saqlangan qal'a-qo'rg'onni o'rganishga qaratadi. Darqasqat, Jarqo'ton monumental ibodatxonasi o'rnida dastlab, qala-qo'rg'on bo'lib, tashqi devor parametri bo'yicha aylana shaklida burjlar bo'lganligi, qal'aning ichki tuzilishi keng to'g'ri burchakli bir necha xonalardan tashkil topganligini aniqlaydilar. Keyingi yillarda Jarqo'tondan topilgan noyob ahamiyatga ega bo'lgan materiallar, madaniy qatlamlar hajmi hamda S-14 analizlariga asoslanib, Sopolli madaniyati va uning bosqichlari xronologiyasini 350-400 yilgacha qadimiylashtirdilar, ya'ni Sopolli bosqichi sanasini mil. avv. 2150-1900 yillarga, so'nggi Bo'ston bosqichini esa, 1400-1300 yillar bilan belgilandi [4].

Radiokarbon analizlar va madaniyatlararo tarqalgan moddiy madaniyat namunalari asosida Sh.B.Shaydullayev Shimoliy Baqtriya madaniyatlarining quyidagi qadimiylashtirilgan yangi xronologik davrini taklif etgan:

Shimoliy Baqtriyaning bronza va ilk temir davri madaniyatlari va ularning xronologik bosqichlari		Davriy sanasi mil.avv.
Sopolli madaniyati	Sopolli	XXII asr yarmidan XX asr
	Jaro'ton	XIX-XVII asrlar
	Ko'zali	XVI asr
	Mo'lali	XV asr
	Bo'ston	XIV asr
Kuchuktepa madaniyati	Kuchuk I	XIII-XI asrlar

O'zbek-Olmon Baqtriya arxeologik ekspeditsiyasining a'zolari Mayk Toyfer va Kay Kanyutlar Sopolli madaniyatining xronologik davrlari ketma-ketligi xususida o'z qarashlari bilan yangilik kiritmoqchi bo'lganlar. Ular Sopolli madaniyatining 5 bosqichga bo'linishini tan olgan holda, Jarqo'ton bosqichidan keyin Ko'zali emas, balki Mo'lali bosqichi keladi, deb ta'kidlaydilar. Ular quyidagicha davrlashtiradilar: Sopolli, Jarqo'ton, Mo'lali, Bo'ston va Ko'zali. Ular bunday davrlashtirishga 3 ta sababni ko'rsatib o'tganlar: 1. Jarqo'ton 3 qabristonini qazish davomida stratigrafik jihatdan Ko'zali davri qabri Mo'alali davri qabridan tepada uchraganligi 2. Bo'ston 6 qabristonida Jarqo'ton va Mo'lali davri sopollarining bir qabrda uchrashi 3. Jarqo'ton davri sopollari bilan Mo'lali davri sopollarining shakl jihatdan o'xshashligi (vazalar) va qizil angobning ilk Jarqo'ton va Mo'lali davrlarida uchrashi va Ko'zali davrida uchramasligi alomatlari asos qilib olingan. Bu masalada ular olib borgan kuzatuvlar asossiz ekanligini, Bo'ston 6 va 7 obyektlarida yuksak metodik mahorat bilan uzoq yillar davomida dala tadqiqotlari olib borayotgan professor N.A.Avanesova ularning xulosalarini asossiz ekanligini ko'rsatib, ilmiy maqolalar orqali e'lon qildi [5]. Sh.B.Shaydullayev xam yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrlariga qo'shilmaydi. Bir yoki bir necha qabr asosida xronologik davrga o'zgartirish kiritish mumkin emas. A. Asqarov va uning shogirdlari yaratgan Sopolli madaniyati xronologiyasi bosqichlari minglab qabr va keng ko'lamli qazishmalar natijasida yaratilganligini ta'kidlash joizdir. Bugungi kunga qadar keng ko'lamdagi arxeologik qazishmalar so'ngi bronza davri yodgorliklarida olib borilib, uning natijalari keng jamoatchilikka e'lon qilib kelinmoqda. Xalqaro ekspeditsiyalar faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davrlashtirish masalasi yetarlicha tadqiq etilgan bo'lsa-da, bronza davri yodgorliklarini qadimiylashtirish borasidagi ba'zi xulosalar bahs-munozaraga sabab bo'lmoqda.

Marg'iyona va Baqtriyada shakllangan madaniyat arxeologiya fanida Gonur, Dashtli-Sopolli madaniyati, Baqtriya – Marg'iyona arxeologik kompleksi (BMAK) yoki Oks sivilizatsiyasi deb ataladi. Amerikalik professor S.S.Lamberg-Korlovskiy birinchi bo'lib Oks sivilizatsiyasi [6], italiyalik professor M.Tosi [7] esa Turon sivilizatsiyasi iboralarini ishlatishdi.

T.SH.Shirinov tadqiqotlari aynan Jarqo'ton yodgorligini ilk shahar timsoli sifatida o'rganish va uni moddiy madaniyat namunalari orqali ilmiy tahlil qilishga qaratilib, tadqiqotchi ushbu yodgorlik misolida O'rta Osiyo bronza davri shahar deb atalishi kerak bo'lgan madaniyatining arxeologik belgilarini quyidagicha izohlaydi.

1. Jamoa sardorlari yoki hukmdorlar istiqomat qiladigan saroylarning bo'lishi;
2. Diniy markaz, mahobatli ibodatxonaning bo'lishi;
3. Mudofaa devori bilan o'ralgan ark hududida saroy aholisi yashaydigan uylarning joylashishi;
4. Keng hududda shahar aholisi yashaydigan imoratlarning bo'lishi, umumjamoa uchun xizmat qiladigan inshootlarning joylashishi, o'sha hududda ishlab chiqarish kuchlari – hunarmandchilik ustaxonalari va dastgohlarining jamlanishi;

5. Yuqori darajada rivojlangan hunarmandchilik (kulolchilik, chilangarlik, to‘qimachilik, tosh va teriga ishlov berish) kvartallarning shakllanib borishi;

6. Muhr yoki qimmatbaho buyumlar uchraydigan “boy”larning qabrlari bo‘lishi;

7. Shahar aholisining iyerarxiyasini ko‘rsatuvchi aholi istiqomat qiladigan uylarning bir-biridan farqlanishi. Aholi istiqomat qiladigan uylardan farqli monumental inshoot saroy, ibodatxonaning mavjudligi;

8. Savdoning rivojlanishini ko‘rsatuvchi, boshqa madaniyatlarga xos bo‘lgan ashyolarning topilishi, ya’ni ushbu madaniyatga xos bo‘lmagan, sopol buyumlar, suyakdan, toshdan, metaldan va qimmatbaho toshlardan ishlangan buyumlarning topilishi;

9. Gliptika, epigrafika va ibtidoiy yozuv ko‘rinishlarining uchrashi [8].

Bu yuqorida sanab o‘tilgan arxeologik belgilar Jarqo‘ton yodgorligida o‘zining to‘liq aksini topgan. Ushbu belgilarning to‘qqizinchisi, ya’ni yozuv ko‘rinishlarining mavjudligi borasidagi fikrlar muhim hisoblanadi. Yozuv – ilk sivilizatsiyaning asosiy belgisi hisoblanadi. Ayrim olimlar, sivilizatsiyaning belgisi deb, yozuvning paydo bo‘lishini asos qilib olsalar, boshqalari shaharlarning paydo bo‘lishi, yozuv va ibodatxonalarni sivilizatsiya belgilari deb hisoblaydilar. K. Renfryu esa jamoaning ijtimoiy tabaqalarga bo‘linishi, rivojlangan hunarmandchilik, shahar, yozuv va ibodatxonalarning bo‘lishini sivilizatsiyaning asosiy belgilari deb hisoblaydi [9].

Sh.B. Shaydullayevning fikricha, ilk shaharlar, shaharlar bilan bir tarixiy jarayonda vujudga keladigan ilk davlatlar boshlang‘ich yozuv usuli, ya’ni inson o‘z fikrini ifoda etishsiz davlatning ham vujudga kelishi mumkin emas. Boylikning oshishi sanoqqa, xo‘jalikni boshqarish jarayonining murakkablashishi esa yozuvga ehtiyoj tug‘dirgan [10].

XULOSA

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab Surxon vohasidagi bronza davri yodgorliklari keng miqiyosda tadqiq etildi. Tadqiqotlar natijasida ushbu hududlarning qadimgi tarixi va madaniyati to‘g‘risida boy ma’lumotlar qo‘lga kiritildi. Ilk, rivojlangan va so‘nggi bronza davriga oid dehqonchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlari, ilk davlatchilik masalalari, madaniy va iqtisodiy aloqalar, hunarmandchilikning taraqqiy etish masalalari bo‘yicha yangi ma’lumotlar fanga joriy qilindi. Ushbu tadqiqotlar natijasida bronza davrida o‘lkamiz hududlarida ro‘y bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot masalalari, shuningdek ushbu hududlarda ilk shaharlarning shakllanishi asoslari va rivojlanish bosqichlari, ilk davlatchilikning paydo bo‘lishi jarayonlariga ko‘plab aniqliklar kiritildi. So‘nggi bronza davri manzilgohlari mahalliy olimlar, balki, chet ellik tadqiqotchilarning ham izlanishlari muhim ahamiyatga egadir. Bronza davri yodgorliklarida bugungi kunga qadar keng ko‘lamda arxeologik qazishmalar olib borilib, uning natijalari jamoatchilikka e‘lon qilib kelinmoqda. Bronza davri yodgorliklarini o‘rganishda xalqaro ekspeditsiyalar faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davrlashtirish masalasi yetarlicha tadqiq

etilgan bo'lsa-da, bronza davri yodgorliklarini davrlashtirish borasidagi ba'zi xulosalar bahs-munozaraga sabab bo'lmoqda. Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Sopolli madaniyatiga kiruvchi yodgorliklar sanasini ancha qadimiylashtirish kuzatiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Аскарлов А., Абдуллаев Б. Раскопки могильника Джаркутан (Результаты работ весной 1975 г.) // ИМКУ – Вып.14, –Ташкент, 1978. – С. 39-42.
2. Аскарлов А., Абдуллаев Б. Джаркутан. –Ташкент, 1983. – С. 40-42.
3. Рахманов У. Керамическое производство эпохи бронзы Южного Узбекистана.– Самарканд,1987. – С.12-14.
4. Аскарлов А., Шайдуллаев Ш. Бактриянинг бронза ва илк темир даври маданиятлари хронологияси // “Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда”. – Тошкент, 2005. – Б. 36-47.
5. Аванесова Н.А. Проблема относительной хронологии и периодизации Сапаллинской культуры // Археология Узбекистана, – № 1. – Ташкент, 2010. – С. 110-143.
6. Lamberg-Korlovsky. The Bronze Age khanates of Central Asia. Antiquity 68, 1994.
7. Tosi M. The Origins of Early Bactrian Civilization. Bactria. An Ancient Oasis Civilizations. Roma-Venezia, 1989. – Pp. 69-71.
8. Аскарлов А.А, Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура на юге Средней Азии. Самарканд, 1993.
9. Renfrew C. The emergence of civilization: The Cuclades and the Aegean in the third millennium B.C. London, 1972, – P. 3.
10. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. Тарих фанлари докторлиги диссертацияси автореферати. ЎзР ФА Археология институти. Самарқанд, 2009.